

## TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SAMARADORLIGINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OSHIRISH BO‘YICHA ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI

### ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN INCREASING THE EFFICIENCY OF TRANSFORMATION OF COMMERCIAL BANKS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

**Jumaev Shohjahon  
Shokirovich**

*1“O‘zsanoatqurilishbank” ATB “Loyiha boshqaruvi” departamenti  
direktori. G-mail: [sh.sh.jumayev@gmail.com](mailto:sh.sh.jumayev@gmail.com)*

#### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Xorijiy banklarda, shu jumladan, transmilliy banklarda transformatsiyalash samaradorligini raqamli texnologiyalar asosida oshirish borasida katta tajriba mavjud. Xususan, mazkur banklarning kreditlash faoliyatining samaradorligini ta‘minlashda, funksional bo‘linmalari faoliyatini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Maqolada alohida olingan transmilliy banklarning transformatsiyalash samaradorligini raqamli texnologiyalar asosida ta‘minlash borasidagi tajribasi yoritilgan va uning amaliy ahamiyatiga baho berilgan.

*Eng.* - Foreign banks, including multinational ones, have extensive experience in improving the efficiency of transformation using digital technologies. For example, at these banks, digital technologies play a key role in ensuring the effectiveness of lending operations and improving the performance of functional departments. The article highlights the experience of individual transnational banks in improving the efficiency of transformation based on digital technologies and assesses its practical significance.

#### Kalit so‘zlar: Keywords:

- ❖ *tijorat banki, transformatsiya, samaradorlik, raqamli texnologiya, biznes-jarayon, avtomatlashtirish, mijoz.*
- ❖ *commercial bank, transformation, efficiency, digital technology, business process, automation, client.*

#### Kirish.

Ilg‘or xorij tajribasi ko‘rsatadiki, tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash samaradorligini ta‘minlash mamlakat banklarining moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. O‘z navbatida, banklarni transformatsiyalash samaradorligini oshirish zamonaviy raqamli texnologiyalarni tijorat banklari faoliyatiga joriy etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shu sababli, hozirgi zamon dunyo bank amaliyotida zamonaviy raqamli texnologiyalarni tijorat banklari faoliyatiga joriy etishni takomillashtirish, raqamli texnologiyalar

yordamda bank xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish, sof foizli spredning mezon chegarasiga erishish, daromad keltirmaydigan likvidli aktivlarning optimal darajasini ta‘minlash, aktivlarning daromadlilik va risklilik o‘rtasidagi monandlikka erishish, bank passivlarining barqarorligiga erishish, tijorat banklari foydasini bozor risklariga ta‘sirchanlik darajasini pasaytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa, tijorat banklarini transformatsiyalash samaradorligini raqamli texnologiyalar asosida

oshirish bo'yicha ilg'or xorij tajribasini o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

V. Dravitsa va A. Kurbaskiy xulosa qiladiki:

❖ raqamli iqtisodiyot rivojlanishni shunchalik tezlashtiradiki, natijada, tartibga solishning eski usullari yangi texnologiyalarga moslashishga ulgurmay qoladi va buning oqibatida davlat boshqaruvi va tartibga solishning an'anaviy mexanizmlari vayron bo'ladi;

❖ fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar milliy kompaniyalar orqali emas, balki global ijtimoiy tarmoqlar orqali to'planadi, o'ta muhim texnologiyalar bir nechta qudratli korporatsiyalar qo'lida to'planadi. Bu esa, axborot suverenitetini yo'qotilishiga olib keladi;

❖ raqamli texnologiyalarni rivojlanishi kompaniyalarning faoliyat muddatini qisqartiradi: so'nggi 50 yil ichida kompaniyalarning faoliyat ko'rsatishining o'rtacha muddati 60 yildan 18 yilga tushdi [1].

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, jahon amaliyotida "Katta ma'lumotlar" raqamli texnologiyasidan aktiv foydalanayotgan kompaniyalar mavjud: Master Card, VISA, HSBC, Bank of America, Nasdaq korporatsiyalari, Facebook, Google, IBM, AT&T kabi IT kompaniyalar, Caterpillar, Procter & Gamble, Coca Cola, Starbucks va Netflix kabi transmilliy korporatsiyalar, Target, WalMart kabi yirik savdo kompaniyalari shular jumlasidandir [2].

G. Golovenchik o'tkazgan tadqiqotlar ko'rsatdiki, raqamlashtirish Internet-savdoni rivojlantirish imkonini beradi va Internet-savdoning hissasiga jahon tovarlar va xizmatlar savdosining 12 foizga yaqin qismi to'g'ri keladi [3].

O. Golikovaning xulosasiga ko'ra, innovatsion axborot texnologiyalarini yuzaga kelishi va tez takomillashishi o'zida nafaqat yangi istiqbollarni, balki, oldini olish yoki minimallashtirish talab etiladigan oldinlari

ma'lum bo'lmagan tahdidlar va xavfsizlik risklarini namoyon etadi [4].

I. Zyablinaning xulosasiga ko'ra, raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyat uchun tahdidlarning asosiy manbai bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

❖ kompyuter tarmog'iga ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va boshqa obyektlarga dasturiy ta'minotlar, ilovalar, texnik qurilmalar vositasida uzatish uchun ulangan qurilmalar;

❖ ijodiy funksiyalarga ega bo'lgan intellektual tizimlar;

❖ Big Data;

❖ ma'lum algoritmlar bo'yicha tuzilgan ma'lumotlar blokini aks ettiruvchi davomli zanjirlar;

❖ kvant mexanikasining prinsiplariga asoslangan texnologiyalar [5].

Hozirgi davrda tijorat banklarining xodimlari ham, kompaniyalarning xodimlari ham akkreditiv orqali import to'lovlarini amalga oshirish jarayonidagi muammolarni aniq bilishadi. Masalan, tashqi savdo shartnomasida ko'rsatilgan summadan kam bo'lgan summaga tovarlarni jo'natish, shartnomada belgilangan sifat ko'rsatkichlariga javob bermaydigan tovarlarni jo'natish [6], jo'natilgan bitta partiya tovarga bir nechta invoys yozish, xabar beruvchi bankning xodimlari tomonidan tovar hujjatlaridagi xatoliklarni payqamaslik [7].

Bir guruh iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, elektron to'lovlarni amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan foydalaniladigan elektron raqamli imzoga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur elektron raqamli imzo to'lov hujjatiga yuridik kuch beradi va imzoni muhr bilan tasdiqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi [8].

E. Shakirovaning xulosasiga ko'ra, bankning to'lov majburiyati (Bank Payment Obligation) resipient bankning (Obligor Bank) chaqirib olinmaydigan majburiyati bo'lib, to'lov summasini xabar beruvchi bankka o'tkazib berilishini kafolatlaydi, biroq, hujjatlarni

solishtirganda nomuvofiqlik bo'lmisligi lozim [9].

Bir guruh iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, elektron akkreditivlar orqali import bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishning muhim masalalaridan biri bo'lib, eksportyor va importyor o'rtasida amalga oshiriladigan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida elektron tarzda almashishni ta'minlash hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli


tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ilg'or xorij tajribasi ko'rsatadiki, transformatsiya jarayonidan o'tgan tijorat banklarida Front-ofis, Midl-ofis va Bek-ofisning funksiyalari bir-biridan aniq mezonlar bo'yicha ajratilgan.

Xorij tijorat banklarida Front-ofis, Midl-ofis va Bek-ofisning funksiyalari bir-biridan aniq mezonlar bo'yicha ajratilgan va birining funksiyasini ikkinchisi takrorlamaydi. Bu esa, o'z navbatida, har bir bo'linmaga aniq vazifalarni yuklash va ularning ijrosini samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Biz quyida dunyoning yetakchi mamlakatlarida samaradorlikning tayanch ko'rsatkichlarining holatiga baho beramiz.



**1-rasm. AQShning "Bank of America" bankida brutto aktivlar va regulyativ kapitalning rentabelligi [10], foizda**

1-rasm ma'lumotlaridan aniq ko'ringayki, Bank of America bankida brutto aktivlarning rentabelligi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bank of America bankida regulyativ kapitalning rentabelligi esa, 2021-2023-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Germaniya va Fransiya bank amaliyotida tijorat banklariga mijozlarning joriy hisob raqamlaridagi pul mablag'laridan to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni ushbu mablag'larni muddatli depozit hisob raqamlariga olmasdan turib, resurs sifatida foydalanishga ruxsat etilmaydi. Bunda faqatgina joriy hisob raqamlarning barqaror qoldig'idan, ya'ni kamaymaydigan qoldig'idan resurs sifatida foydalanishga ruxsat

etiladi. Bu esa, o'z navbatida, joriy hisob raqamlaridagi pul mablag'laridan foydalanishning tijorat banklarining joriy likvidligiga nisbatan salbiy ta'sirini yuzaga kelishiga imkon bermaydi.

Shunisi ahamiyatliki, Buyuk Britaniya bank amaliyotida overdraft krediti ta'minotga ega bo'lmagan kredit sifatida tan olinadi, shu sababli, banklar overdraft krediti bo'yicha kredit shartnomasini tuzayotganda kredit oluvchi kompaniyaga har oyning so'nggi ish kunida joriy hisobraqamni kreditli qoldiqqa ega bo'lishini ta'minlash majburiyatini yuklaydi. Bu esa, o'z navbatida, kredit riski darajasining oshib ketishini oldini oladi.

Buyuk Britaniya banklari overdraft krediti summasining yuqori chegarasini aniqlash uchun kredit oluvchining overdraft kreditining muddati mobaynida oladigan kelgusidagi pul tushumlarini (cash flow forecast) sinchiklab tahlil qiladilar.

Transmilliy banklarning to'lov amaliyotida banklarning orderli cheklaridan keng foydalaniladi.

Cheklar bilan xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish Cheklar bo'yicha Jeneva konvensiyasi bilan tartibga solinadi [11].

E'tirof etish joizki, huquqning anglo-sakson tizimi amal qiladigan davlatlar (Avstraliya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Irlandiya, Kanada, Yangi Zelandiya, Puerto-Riko, AQSh va boshq.) Cheklar bo'yicha Jeneva konvensiyasiga qo'shilmagan. Qolgan davlatlar ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilishgan.

Shu o'rinda aytish joizki, huquqning anglo-sakson tizimi amal qiladigan davlatlar cheklar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda Buyuk Britaniyaning 1882-yilda qabul qilingan "Uzatma tijorat veksellari to'g'risida"gi qonuni talablariga amal qilishadi. Ushbu Qonunning afzalligi shundaki, u cheklar muomalasini tartibga solishni osonlashtiradi, chunki, unda cheklarga nisbatan murakkablashtirilgan talablar mavjud emas [12].

Cheklarni konversiya qilish birinchi marta AQSh amaliyotida Federal zaxira tizimi tomonidan ishlab chiqilgan "Check 21" tizimi orqali 2004 yil oktyabrda amalga oshirildi [13].

Cheklarni konversiya qilish qog'oz cheklarni kliring qilish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Ammo, banklarga baribir chekni qog'oz varianti kerak. Chunki, ular chekning qog'oz variantini kunlik hujjat sifatida saqlab qo'yishi kerak.

### ***Xulosa va takliflar.***

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarini transformatsiyalash samaradorligini raqamli texnologiyalar asosida oshirish borasidagi ilg'or xorij tajribasi bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash samaradorligini ta'minlash mamlakat banklarining moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. O'z navbatida, banklarni transformatsiyalash samaradorligini oshirish zamonaviy raqamli texnologiyalarni tijorat banklari faoliyatiga joriy etish zaruriyatini yuzaga keltiradi;

- raqamlashtirish Internet-savdoni rivojlantirish imkonini beradi;

- tijorat banklarining xodimlari ham, kompaniyalarning xodimlari ham akkreditiv orqali import to'lovlarini amalga oshirish jarayonidagi muammolarni aniq bilishadi. Masalan, tashqi savdo shartnomasida ko'rsatgan summadan kam bo'lgan summaga tovarlarni jo'natish, shartnomada belgilangan sifat ko'rsatkichlariga javob bermaydigan tovarlarni jo'natish, jo'natilgan bitta partiya tovarga bir nechta invoys yozish, xabar beruvchi bankning xodimlari tomonidan tovar hujjatlaridagi xatoliklarni payqamaslik;

- elektron akkreditivlar orqali import bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishning muhim masalalaridan biri bo'lib, eksportyor va importyor o'rtasida amalga oshiriladigan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida

elektron tarzda almashishni ta'minlash hisoblanadi;

- xorij tijorat banklarida Front-ofis, Midl-ofis va Bek-ofisning funksiyalari bir-biridan aniq mezonlar bo'yicha ajratilgan va birining funksiyasini ikkinchisi takrorlamaydi. Bu esa, o'z navbatida, har bir bo'linmaga aniq vazifalarni yuklash va ularning ijrosini samarali nazorat qilish imkonini beradi;

- Bank of America bankida brutto aktivlarning rentabelligi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bank of America bankida regulativ kapitalning rentabelligi esa, 2021-2023-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan;

- Buyuk Britaniya bank amaliyotida overdraft krediti ta'minotga ega bo'lmagan kredit sifatida tan olinadi, shu sababli, banklar overdraft krediti bo'yicha kredit shartnomasini tuzayotganda kredit oluvchi kompaniyaga har oyning so'nggi ish kunida joriy hisobraqamni kreditli qoldiqqa ega bo'lishini ta'minlash majburiyatini yuklaydi. Bu esa, o'z navbatida, kredit riski darajasining oshib ketishini oldini oladi;

- huquqning anglo-sakson tizimi amal qiladigan davlatlar (Avstraliya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Irlandiya, Kanada, Yangi Zelandiya, Puerto-Riko, AQSh va boshq.) Cheklar bo'yicha Jeneva konvensiyasiga qo'shilmagan. Qolgan davlatlar ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilishgan;

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarini transformatsiyalash samaradorligini ilg'or xorij tajribasi asosida oshirish uchun, birinchidan, elektron akkreditivlarni va bank to'lov majburiyatlarini banklar faoliyatiga joriy qilish yo'li bilan transformatsiya jarayonidagi banklarning to'lov amaliyotini samaradorligini oshirish kerak; ikkinchidan, Big Data va Sun'iy intellekt raqamli texnologiyalaridan foydalanish asosida mijozlarning kredit to'loviga layoqatlilikini va qimmatli qog'ozlar emitentlarning moliyaviy holatini baholash aniqligini oshirish lozim; uchinchidan, menejmentning innovatsion usullarini joriy qilish yo'li bilan transformatsiya jarayonidagi banklarning funksional bo'linmalari faoliyatining samaradorligini oshirish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. В. Дравица В., Курбацкий А. Промышленная революция Industry 4.0//Наука и инновации. – Минск, 2016. - №157. – С. 13-16.
2. Шал А. В. Технологии больших данных в статистике//Учет и статистика. – Ростов, 2017. – № 2. – С. 81-87.
3. Головенчик Г. Г. Цифровизация белорусской экономики в современных условиях глобализации. Монография. – Минск: Изд. центр БГУ, 2019. – 257 с.
4. Голикова О.А. Цифровая экономика России: открывающиеся риски и возможности//Социально-экономические явления и процессы, Липецк, 2018 г. – № 13 (4) – 147-157 с.
5. Зяблина И.И. Анализ современных рисков развития цифровых технологий//Умная цифровая экономика. – Свердловск, 2022. - №3. – С. 68-71.
6. Колюшенко Н.Ф. Мошенничество с применением документарных инструментов//Международные банковские операции. 2009. – №4. - С. 89-97.
7. Леднев М.В., Подосенков Н.С. Мошенничество в торговом финансировании: виды и методы минимизации//Международные банковские операции. – 2015. - №2(56). – С.60- 73.
8. Савинов Ю.А., Масюкова Т.Д., Кривоножкин К.Д. Эволюция платежных инструментов в международной торговле//Российский внешнеэкономический вестник. – Москва, 2014. - №8. – С. 33-41.

9. Шакирова Э. *Bank Payment Obligation (BPO): новый метод платежа и финансирования международной торговли.*//Конференция «Новые акценты в торговом и экспортном финансировании в 2013 г.» Москва – 22 апреля 2013 г.

10. "Bank of America" (Concolidated Balance Sheet. Concolidated Statement of income).

11. *Convention Providing a Uniform Law for Cheques*// <https://treaties.un.org/pages>

12. Агарков М.М. Основы банковского права: курс лекций; Учение о ценных бумагах: научное исследование. М., 2007. - С. 122.

13. Bradford T. *Payment Types at the Point Sale. Payments System Research Briefings.* – Kansas City, 2006.